

Litsenziyalash jarayoni elektronlashtirildi

Qaror bilan **Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona nizom** tasdiqlandi.

Mazkur nizom bilan **28 ta litsenziyalanadigan** faoliyat turlarining pasportlari tasdiqlandi.

Yagona nizomda tartib-taomillar bo'yicha umumiy qoidalar belgilandi.

Endilikda barcha arizalar **elektron tarzda** "Litsenziya" axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali **dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida** qabul qilinadi.

Fuqarolarning davlat organlariga "borish" va "kutish" kabi ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo'yildi.

Litsenziya olish uchun ariza vakolatli organga "Litsenziya" AT yoki YIDXP orqali taqdim etiladi.

Maxsus elektron tizim orqali litsenziya berganlik uchun yig'im va davlat boji to'lovlari amalga oshirilganligi onlayn tekshiriladi hamda QR-kod qo'yilgan litsenziya blankasi avtomatik ravishda shakllantirilib, talabgorning shaxsiy kabinetiga elektron shaklda yuboriladi.

Litsenziya olishda **talabgorning boshqa kelishiladigan organlardan xulosasini olib, arizaga ilova qilish amaliyoti bekor qilindi.**

"Bir darcha" tamoyili asosida litsenziyalovchi organning "Litsenziya" AT orqali tegishli xulosalarni boshqa organlardan o'zi oladi, xulosa o'z vaqtida taqdim etilmasa, **ijobiy xulosa** olingan deb hisoblanadi.

Litsenziyalovchi hujjatlarning amal qilishini to'xtatib turish **litsenziyalovchi organ** yoki **sud** tomonidan amalga oshiriladi.

Talabgorning litsenziya berish haqidagi arizasini birinchi marta ko'rib chiqish jarayonida litsenziya berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar talabgor tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganda ushbu arizani ko'rib chiqish rad qilinmasdan kamchiliklarni bartaraf etish uchun talabgorga muddat berilishi belgilandi.

Talabgor litsenziyalovchi organ qaroridan norozi bo'lsa faqat sudga murojaat qilish emas, nizoni sudgacha ko'rib chiqish tartibi belgilandi.

Endilikda litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorlarni respublika darajasida qabul qiluvchi vakolatli organlarda mavjud xodimlar orasidan 5 kishidan iborat shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha **Apellyatsiya kengashi** tashkil etiladi.

Apellyatsiya kengashi nizolarni tezkor ko'rib chiqib, qonuniy hal qilish imkoniyatini beradi. Lekin fuqarolar xohlasa apellyatsiya kengashiga murojaat qilmasdan to'g'ridan to'g'ri sudga ham murojaat qilishlari mumkin.

Mazkur qaror **2022-yil 1-martdan** kuchga kiradi.

Manba: 80-son qaror, 21.02.2022y.